

TO‘QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH

Abdurazzoq Abdusattarovich Abdujabborov

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan
tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

abduimom77@mail.com

Annotatsiya: Maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan trikotaj mahsulotlarining innovasion jarayonlarini rivojalntirish yo‘llarii korsatilgan. Shu blan birga yangi mahsulotlar ko‘rinishida tikish sifatini, matolar va buyoqlarni yaxshilash, rang-barang matolarni qo‘llash takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: To‘qimachilik sanoati, tikuv-trikotaj sanoati, ko‘rgazma, raqobat, xaridorlar ehtiyojlarini o‘rganish, marketingi kontsep-tsiyasini ishlab chiqish

DEVELOPMENT OF INNOVATION PROCESSES IN TEXTILE INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abdurazzok Abdusattarovich Abdujabborov

Standardization, certification and technical
Scientific Officer of the Regulatory Research Institute

abduimom77@mail.com

Annotation: The article shows ways to develop innovation processes of knitted products produced at enterprises of the textile industry. At the same time, proposals were developed to improve the quality of sewing, fabrics and paints in the form of new products, apply colorful fabrics.

Keywords: textile industry, sewing-knitting industry, exhibition, competition, customer needs research, marketing concept development.

KIRISH

Mamlakatimizda to‘qimachilik sanoati va moda industriyasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni shakllantirish va joriy etish, o‘zbek brendlarini dunyo

bozoriga yo'naltirish, ichki va tashqi integratsion aloqalarni mustahkamlash, milliylik singdirilgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlarning yangilanishi hamda ularning marketingini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 12-fevraldagi qarori bu boradagi ishlar rivojida muhim huquqiy asos vazifasini o'tamoqda [1].

Kelgusida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish, to'qima-chilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va jadal rivojlantirishni ta'minlash, paxta tolasi va ipak xomashyosini chuqur qayta ishlash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish yo'li bilan raqobatbardoshli, tashqi bozorlarda talab qilinadigan tayyor, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini kengaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi [2].

O'zbekiston sharoitida qulay muhit yaratish bo'yicha choralar va nisbiy afzalliklarga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari, ya'ni ko'p mehnat talab qiluvchi va mahalliy tabiiy resurslardan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi tarmoqlar rivojlanishi ustuvor yo'nalish etib tanlangan. Bu jarayonda innovatsion rivojlanishning tarmoq va sohalarga jadal tatbiq qilinishi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Ko'pchilik to'qimachilik sanoat korxonalari import o'rnini bosish va yangi ishchi o'rinalarini yaratish mumkin bo'lgan o'sish makonlari sifatida qo'rishi lozim. O'zbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonining asosiy shartlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash, ishlab chiqaruvchi va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarni samarali shakl va uslublarda tashkil etishdan iborat [3].

NATIJALAR

To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hozirgi davrning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu respublika byudjetiga valyuta tushumlarini ko'paytirishning muhim manbalaridan biridir. To'qimachilik sanoati korxonalarining o'rtacha yillik quvvati paxtani qayta ishlash bo'yicha 460 ming tonnani, ip-kalava ishlab chiqarish 325 ming tonnani, trikotaj ip ishlab chiqarish 80 ming tonnani, mato ishlab chiqarish 276 million kvadrat metrni, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish 256 million donani, tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 10 million donani, shoyi-ipak iplarini ishlab chiqarish 2 million tonnani tashkil etadi. Hozirgi davrda to'qimachilik

sanoati mahsulotlarining mahalliy bozorida iste'molchi uchun jiddiy kurash ketmoqda. Bugun iste'molchi tanlash huquqi paydo bo'ldi, unga chet el firmalarining qimmat va sifatli tovarlari, chet el savdo belgilariga o'xshash qalbaki tovarlarning katta hajmi hamda mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsuloti taqdim etilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, to'qimachilik sanoati respublika eksport salohiyatini oshirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli soha hisoblanadi. Shuning uchun sohaga investitsiyalarni jalg qilish hamda ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish siyosati amalga oshirilmoqda. 2015-yildan 2018-yilgacha bu sanoatga qo'yilgan investitsiyalarning umumiy hajmdagi salmog'i - 22,4 foizdan 27,1 foizgacha, ya'ni 4,7 foizga ortdi. Assortiment siyosatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'rgazmalar va yarmarkalar ham axborot manbasi sifatida muhim o'rinni egallaydi. Zamonaviy sharoitlarda yarmarkalar, ko'rgazmalarning roli va ahamiyati shunchalik ko'p qirraga ega bo'lganligi sababli ularga mukammal kommunikatsiya vositasi sifatida qaraladi. Bu yerda yarmarka qatnashchilari, mehmonlari va tashkilotchilari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvining amalga oshganligi sababli, qatnashchilarga jamoatchilik tomonidan xayrixoh munosabatlar shakllanadi. Yarmarkada korxonalar bozorni, raqobatchilarni, ularning mahsulotlarini o'rganadilar, o'zlarining stendlariga maqsadli xaridchlarni jalg qiladilar, vositachilarni qiziqtiradilar. Yarmarkada maqsadli iste'molchilarni har tomonlama o'rganish, ular bilan munosabatni yaxshilash, yangi mahsulotlarni taqdim etish, xaridorga bir turdag'i mahsulotlarni sifat, narx va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra taqqoslash imkoniyatini berish mumkin. Xorijiy bozorlarni egallah uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish, assortimentni kengaytirish zarur. Bozor assortiment siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi[3].

MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatining yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarning bozori tashkil topish bosqichida turibdi. Shu bilan birga, to'qimachilik sanoait mahsulotlarining sifati qoniqarli emasligiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Ya'ni, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun import mahsulotlar birinchi galda sifat bo'yicha raqobat qilishini tavsiya etish mumkin. Taqdim etilayotgan mahsulotlar assortimenti haqida ma'lumotni olish, yangi tovarlarni izlash, mahsulotlarni narxlari hamda raqobatchi korxonalar bitimlari shartlari haqida ma'lumot yig'ish, yarmarka mehmonlarining asosiy maqsadlari bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga korxona vakillari ham, mehmonlar ham yarmarkaga oldindan ko'zlangan maqsad aniq bir korxona to'g'risida ma'lumot olish uchun keladilar. Mehmonlarni mahsulotlarning turli guruhlari qiziqtiradi va ular yarmarkalarda bevosita shartnomalar tuzish orqali tovarlarni

vositachilarsiz sotib olishni istaydilar. Ishlab chiqaruvchilar uchun yarmarkaning asosiy maqsadi - bu nafaqat bitimni imzolash, balki raqobatchilar haqida to‘liq ma’lumot olish hamdir. Yarmarkada taqdim etilgan mahsulotlar assortimenti ommaviy iste’molchiga mo‘ljallangan bo‘lib, unga sifatli yangi mahsulotlar taqtsim etiladi. Yarmarkada maqsadli iste’molchining manfaatlarini ulgurji va chakana savdo korxonalari ifodalaydi. Ular mahalliy ishlab chiqaruv-chilarning mahsulotlaridan manfaatdor bo‘lib, bu tovarlarni vositachilarsiz, o‘zlari izlashni ma’qul ko‘radilar. Bularning hammasi chakana savdo narxlarini iste’molchilar uchun qulay bo‘lishiga yordam beradi[5]

Mahalliy bozorda past rivojlanayotgan mahsulotlar guruhi - bu tayyor kiyimlar bozoridir. Birinchi o‘rinda, korxonalar uchun trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish, ularning sifati, assortimenti va dizaynini yaxshilash borasida katta imkoniyatlar mavjud. Mazkur yo‘nalishda mahsulotlarining yangi turlari sifatida trikotaj ichki kiyimlarni hamda erkaklar trikotajining yangi turlarini ishlab chiqishni tavsiya etish mumkin. Yana bir istiqbolli yo‘nalish - bu bolalar kiyimi bozori hisoblanadi. Mazkur mahsulotlar guruhi doirasida iste’mol bozori uchun nisbatan yangi tovar sifatida bolalar trikotajini o‘zlashtirish tavsiya etiladi. Rivojlanishning yangi istiqbollari ustki kiyim bozorida ham mavjud. Bular xaridorning uzoq muddatli tanlovi asosidagi mahsulotlar hisoblansa ham, umuman olganda bozorda taqdim etilgan modellar iste’molchilar talabini qoniqtirmaydi. Mazkur bozorda iste’mol talabini qo‘sishimcha o‘rganish hamda yuqori sifatli xomashyodan ustki kiyimning yangi modellarini ishlab chiqish yoki moda bo‘lgan matolar va zamonaviy dizayndagi, yoshlar uchun tikilgan arzon modellarni taqdim etish zarurligi haqida xulosa qilish mumkin. Yangi mahsulotlar ko‘rinishida tikish sifatini, matolar va buyoqlarni yaxshilash, rang-barang matolarni qo’llashni taklif qilish mumkin.

XULOSA

Shuni ta’kidlash lozimki, to‘qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini va assortiment siyosatini shakllantirishda innovatsion rivojlanishning quyidagi jarayonlariga e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) raqobatchilik vaziyatini o‘rganish hamda o‘zining bozorni ma’lum segmentiga mos bo‘lgan narx va sifatga javob beradigan tovar uchun qulay o‘rinni egallash;
- 2) xaridorlar ehtiyojlarini o‘rganish va yangi mahsulotlar marketingi kontsepsiyasini ishlab chiqish;
- 3) vositachi korxonalar bilan o‘zaro hamkorlikda yagona ishlabchiarish va sotish siyosatini shakllantirish, tajriba almashish, umumiy reklama tadbirlarini o‘tkazish maqsadida tikuvchilik buyumlari ishlab chiqaruvchilarining uyushmalarini tashkil qilish;

4) kiyimni yangi turlarini ishlab chiqish va jahon andozalari talablariga javob beradigan kichik seriyali tikishga o‘tish;

5) to‘qimachilik korxonalarini lizing bitimlari asosida texnik jihatdan qayta qurollantirish;

6) korxonalar o‘zlarining innovatsion faoliyatida bozor sig‘imi, bozor segmentatsiyasi, xaridorlarning iste’mol xususiyatlari kabi turli omillarni muntazam ravishda hisobga olishi va mos bo‘lgan mahsulotlar siyosatini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 12-fevraldagi 4186-sun Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi 2016-yil 21-dekabrdagi 2687-sun Qarori.

3. Abulkosimov X.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi. - T.: Akademiya. 2011

4. Vaxobov A.V., Xajibakiyev SH.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T., “Moliya”, 2010.

5. Foy F. Kleiner G. B. Сtrategia predpriyatiya. -M.: Izd-vo “Дело” ANKH, 2008.

REFERENCES

1. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 4186 of February 12, 2019 “on measures to further deepen the reform of the textile and sewing-knitting industry and expand its export potential”.

2. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan “on the program of measures for the further development of the textile and sewing and knitting industry in 2017-2019”No. 2687 of December 21, 2016.

3. Abulkosimov X.P. Macroeconomic regulation and sustainable development of Uzbekistan. - T.: Academia. 2011

4. Vakhobov A.V., Khajibakiyev SH.X., Mouminov N.G. Foreign investment. Tutorial. - T., "Finance", 2010.

5. Foy F. Kleiner G. B. Enterprise strategy. -M.: Publishing House “Delo” ANKH, 2008.